



ANTROPOGONIK AFSONALARDA SAKRALLIK TALQINI

Rizoyeva Mehriniso Abduazizovna

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

O.Qayumov

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.d taqrizi asosida

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek folklorida odamning yaratilishi haqidagi antropogonik afsonalarning variantlari va syujet tiplari, shuningdek, jahonning boshqa xalqlar mifologiyasida mavjud bo'lgan ushbu mavzudagi asotir va afsonalar bilan mushtarak negizi xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mif, marosim, ma'buda, diniy e'tiqod, sakral, mifologik tasavvur, urf-odat, kult.*

Kirish: O'rta Osiyo xalqlarining islom dinini qabul qilishi va «Qur'oni karim», hadis, tafsir va boshqa manbalardagi islomiy asotirlarning bu hududda keng yoyilishi natijasida Odam Atoning yaratilishi va yer yuzida insonning yashay boshlashi to'g'risidagi afsonalarning syujetlari o'lka xalqlari folklorida ommalasha boshladi. Ana shu tarixiy-folkloriy jarayon natijasida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotida Odamning yaratilishi to'g'risidagi antropogonik afsonalar silsilasi yuzaga kelgan. Folklorshunos Sh.Shomusarovning aniqlashicha, islom mifologiyasining bevosita ta'sirida shakllangan o'zbek antropogonik afsonalarida Odam Atoning yaratilishining sabablari, uning tuproqdan yaratilishi, odamni yaratish uchun zarur bo'lgan tuproqning zamindan qarzga olinishi, Odam Atoga jon kirgizilishi, Odam Atoning qovirg'asidan Momo Havoning yaratilishi, ularning jannatdan quvilishi, Odam Ato bilan Momo Havoning yer yuzidagi hayoti haqida hikoya qilinadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). «Qur'oni karim» rivoyatlarini ilmiy tahlil etgan M.B.Piotrovskiy Odam alayhissalomning yaratilishi to'g'risidagi afsonalar arablar orasida islomdan avvalgi davrlarda ham mavjud bo'lganligiga qator faktik materiallarni dalil qilib keltiradi va bu syujet nasroniy mifologiyasi ta'sirida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari suradi[2].

Sh.Shomusarov esa «Odam alayhissalomning tuproqdan yaratilishi haqidagi antropogonik miflar arablarga nasroniy diniy adabiyotidan o'tgan emas. Bu mif dunyo xalqlari epik ijodiyotining sarchashmalari mushtarak badiiy zamindan oziqlanganligini ko'rsatuvchi dalildir...O'zaro etnik, diniy va hududiy yaqinligi bo'lmagan xalqlarning Odam Ato to'g'risidagi antropogonik miflari bir-birlariga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil ravishda shakllangan bo'lishi kerak.» [3] degan ilmiy farazni o'rtaga tashlaydi.

Odamning yaratilishi to'g'risidagi antropogonik miflarning eng qadimgi namunalaridan biri Mesopotamiyada yashagan shumerlar mifologiyasida mavjud bo'lgan. Shumerlarning S.Kramerning aniqlashiga qaraganda, odamning yaratilishi to'g'risidagi



mifni o'zida aks ettirgan «sopol bitiklar»ning ikkita nusxasi saqlanib qolgan. Ulardan bittasi Filadelfiyadagi Pensilvaniya universitetining Muzeida saqlansa, ikkinchisi Frantsiyaning Luvr shahridagi xususiy ko'rgazmada joylashgan. Mifning Filadelfiya «sopol kitobi»da aks ettirilgan nusxasi nisbatan mukammalroq bo'lib, xudolarning o'zlariga oziq-ovqat topish uchun chekkan azoblarini bayon etish bilan boshlanadi. Mifda hikoya qilinishicha, xudolar bunday qiyinchiliklardan mshikoyat qilishadi, ammo ularga yordam berishi mumkin bo'lgan donishmandlik timsoli va suv ilohi Enki ummon tubida osuda uyquda yotgan bo'ladi. Shunda «hamma xudolarga hayot baxsh etgan ona» - ummon shaklida yastanib yotgan ona-Nammu Enkini uyg'otadi va «o'rningdan qo'zg'ol o'g'lim, o'z uyingdan chiq, o'z donoliging va san'atingni namoyish qil. Shunday bir narsani yaratginki, toki xudolar ko'tarib yurgan savatlarini yerga qo'ysinlar», - deydi. Enki onasi ummon Nammuning maslahatiga ko'ra odamni yaratadi[4].

Shumer mifologiyasi talqinicha, Enki ummon tubidan olib chiqilgan loydan yasagan ilk odamlar tangrilarning og'irini yengil qilish, ya'ni yerga ishlov berish, oziq-ovqatlarni tayyorlash maqsadida yaratilgan ekan[5].

Ibtido haqidagi Babil mifida esa tangri Marduk Tiamat degan yovuz maxluq ustidan g'alabaga erishganidan keyin tuproqni Kingu ismli tangrining qoni bilan aralashtirib loy qilib, odamni yaratganligi aytiladi. Qadimgi yahudiy antropogonik afsonalarida esa tangrining «qoni» detali Yaxvening «nafasi» bilan almashtirilgan. Ya'ni tangri Yaxve loydan yaratilgan odamning vujudiga o'z nafasini puflab jon kiritgan emish. Misrda yaratilgan qadimgi obidalar orqali yetib kelgan miflarda esa Xnum degan tangri va ayni paytda ilohiy kulol birinchi ayol bilan erkakni loydan yasaganligi hikoya qilingan[6].

Qadimgi turkiylar mifologiyasida odamning yaratilishi haqidagi tasavvurlar afsonaviy qahramon - dimiurg Ulgan hamda uning ukasi Erlik faoliyati bilan bog'lab tushuntirilgan. Tog'li oltoyliklar mifologiyasiga ko'ra, yer yuzida yashagan birinchi odam Ulgan tomonidan yaratilgan. Tog'li oltoy mifologiyasida aytilishicha, biz istiqomat qiladigan zamin «chin yer» bo'lib, u hozirgi paytda o'zining ikkinchi umrini yashamoqda. Zaminda ilgari ham odamlar yashagan va yerning birinchi hayoti butun olam to'foni natijasida halokatga uchragan. Bir temir shoxli ko'k taka yetti kun davomida butun dunyoni aylanib odamlarga to'fon boshlanganligini ma'lum qilgan. Yetti kun yer qimirlab, yomg'ir, qor, jala yoqqan, yer yuzini suv bosgan. Ulgan kattakon kema yasab, hamma jonivorlar, qushlardan bir juftdan olib kemada suzib yurgan. Yetti kundan keyin yog'ingarchilik tingach, ular quruqlikka chiqqanlar va Ulgan oltin kosaga ko'k chechakni solib qo'yib, shundan odam yasagan. Ulganning Erlik degan ukasi bor ekan, u akasining oltin kosaga solib qo'ygan ko'k chechagidan ozroq o'g'irlab, u ham odam yasamoqchi bo'lgan. Ulgan ukasidan xafa bo'lib: : «Mening odamlarim oq yuzli bo'ladilar va quyosh chiqadigan tomonga boradilar, sen yasagan qora odamlar kunbotarni o'ziga makon qilsin!», - deb qarg'abdi. Shundan keyin qora odamlar childirma yasab, shomonlik qila boshlashibdi.

Boshqa bir afsonada aytilishicha, birinchi odamlarni yasab bo'lgan Ulgan ularga jon olib kelish uchun qarg'ani Kudayning huzuriga yo'llabdi. Kuday unga odamning jonini



beribdi va qarg'a jonni tumshug'ida qisib olgancha ortiga qaytib uchibdi. Yo'l olis ekan, qarg'a uzoq uchib och qolibdi. Pastda to'fonda o'lgan jonzotlarning o'laksasiga ko'zi tushibdi, ammo qush uchib kelaveribdi. Oradan ancha vaqt o'tib, qarg'a yana pastga qarabdi va o'lib yotgan sigirning moviy ko'zlariga nigohi tushib, o'zini tutolmay «qanday ajoyib ko'zlar!» deb baqirib yuborganini bilmay qolibdi. Shunda uning tumshug'idagi jon zaminga sochilib ketibdi va yer yuzida dov-daraxtlar, o't-o'lanlar, gul- chechaklar unib chiqibdi. Ulganning odam yasaganligidan xabar topgan Erlik kechasi o'zining yer tagidagi makonidan zamin yuzasiga chiqibdi-da, akasining qasri yoniga boribdi. Qarasa, ichkarida yasalgan odamlarning tanasi qator qilib terib qo'yilgan emish. Ulgan o'zi yasagan odamlarning tanasini qo'riqlash uchun itni saroy darvozasi oldiga qo'riqchi qilib qoldirib ketgan ekan. Ilgari itning tanasi jun bilan qoplanmagan ekan, Erlik itga qarab: «agar meni ichkariga kiritasang, senga mana shu eski po'stinimni beraman, hech qachon sovqomaysan, ovqat ham beraman, toki bir oygacha ochiqish nimaligini bilmaysan», - debdi. Aldangan it Erlikni ichkariga kiritibdi. Erlik o'zining nafasini puflab, odamlarning tanasiga jon kiritibdi. Ana shundan yer yuzida odamlar paydo bo'libdi[7].

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Odamning o'simlik yoki daraxtdan yaratilishi haqidagi mifologik tasavvurlar o'zbek folklorida to'liq yetib kelmagan bo'lsa ham bu antropogonik mifning turli xil epik motivlar tarzidagi ko'rinishlari epik janrlarning syujet tizimida, shuningdek, xalq qo'shiqlarida saqlanib qolgan. O'ylashimizcha, o'zbek xalq ertaklaridagi olma, dumbul kabi mevalarni yeb g'ayrioddiy homilador bo'lish motivining tarixiy ildizlari ana shu antropogonik mifga bog'lanadi. «Yarimtajon» ertagida befarzand shohning huzuriga kelgan devona unga uch olma beradi va shu olmalarni xotinlari bilan yesa farzandli bo'lishini bashorat qiladi. Podshoning kichik xotini olmaning yermini yeganligi tufayli Yarimtajon dunyoga keladi [8]. «Olmos botir» [9], «Hakimbek botir» [10] ertaklarida ham qahramonning g'ayrioddiy dunyoga kelishi homiy-personaj taqdim etgan g'aroyib olma tufayli amalga oshadi.

Olma yeyish orqali homilador bo'lish motivi aslida daraxt totemi to'g'risidagi mifik qarashlarga borib bog'lanadi. Chunki totemistik tasavvurlarga ko'ra, odamning tug'ilishi inson tanasiga totemning kirishi natijasida ro'y beradi, o'lim esa totemga qaytish deb tushunilgan [11].

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Yuqorida aytilganidek, dunyodagi birinchi odamning daraxt, uning mevasi yoki o'simlikdan yaratilganligi to'g'risidagi miflar qadimgi odamlar orasida daraxt totemiga bo'lgan ishonchini keltirib chiqargan. Bu tasavvurlarning antropogonik miflar tizimida rivojlantirilishi natijasida daraxt yoki o'simliklar mevasini yeb homilador bo'lish motivi kelib chiqqan. Shuningdek, o'zbek xalq afsonalarida odam (yoki uning biror tana a'zosi)ning o'simlik (shu jumladan, daraxtga ham) aylanishi motivi uchraydiki, bizning o'ylashimizcha, evrilish motivining bu ko'rinishi bevosita birinchi odamning yaratilishi to'g'risidagi qadimgi turkiy miflarga bog'lanadi.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, o'zbek folklorida odamning yaratilishi to'g'risidagi antropogonik afsonalarning bir necha



variantlari mavjud bo'lib, ularning asosiy syujet tiplari jahonning boshqa xalqlari mifologiyasida mavjud bo'lgan ushbu mavzudagi asotir va afsonalar bilan mushtarak negizga ega. Odam Atoning tuproqdan yaratilishi hamda Momo Havoning odam qobirg'asidan bino etilishi to'g'risidagi o'zbek xalq afsonalari islomiy manbalarning o'lkamizga keng yoyilishi natijasida yuzaga kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. Shomusarov Sh. Arab-o'zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. - Toshkent: Fan, 2002. - B.175.
2. Пиотровский М.Б. Коранические сказания. - М.: Наука, 1990. - С.39.
3. Шомусаров Ш. Кўрсатилган асар. - Б. 173-174.
4. Крамер С.Н. История начитается в Шумере. - М.: Наука, 1991. - С.118-119.
5. Хук С.Г Мифология Ближнего Востока. - М.:Наука, 1991. - С.22.
6. Хук S.G. Ко'rsatilgan asar. - B.99.
7. Anoxin A.V. Ko'rsatilgan asar. - B.18.
8. Gulpari. O'zbek xalq ijodi. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969. - B.14
9. Oltin beshik. O'zbek xalq ijodi. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. - B.13- 14. Gulpari.-B.72
10. Jo'raev M. Bo'ri haqidagi qadimgi turkiy miflar va o'zbek folklori // Adabiyot gulshani. 1-kitob. - Toshkent: Mehnat, 1999. -B.8-16.